



International Journal of
Philosophical Studies
and Social Science





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

**INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES
AND SOCIAL SCIENCES**

**FALSAFIY TADQIQOTLAR VA IJTIMOIIY FANLAR XALQARO
JURNALI**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ФИЛОСОФСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ И СОЦИАЛЬНЫХ НАУК**

Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, falsafiy-ilmiy jurnal

2025, 5-Vol., 5-Issue



M u a s s i s

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy
Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi**

Interscience-service MCHJ

«International Journal of Philosophical Studies And Social Sciences»

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

Table of Content - Volume 5 | No 5 (2025)

№	Paper Title	Author Name	Page Number
1.	THE ROLE OF THE PRINCIPLES OF NAQSHBANDIYA IN THE FORMATION OF THE VIRTUE OF GRATITUDE	Navro‘zova Gulchekhra Nigmatovna	1-7
2.	RUSSIAN-UZBEK LANGUAGE INTERACTION AND THE SOCIALIZATION OF GENERATIONS	Vera Mukhamedjanova	8-13
3.	PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING INTERNATIONAL CULTURE AND CULTURE OF TOLERANCE	Xoliqov Yunus Ortiqovich	14-22
4.	CULTURAL AND POLITICAL PROCESSES IN TURKESTAN AT THE BEGINNING OF THE XX CENTURY: THE CASE OF THE ALPHABET REFORM	Yulduz Boboqulovna Tursunova	23-37
5.	THE PHILOSOPHY OF POSTMODERNISM AND THE LOSS OF THE ONTOLOGICAL STATUS OF TRUTH IN THE INFORMATION AGE	Burnashev Rinat Faritovich	38-46
6.	A PHILOSOPHICAL CONCEPTUALIZATION OF THE INTERACTION OF SOCIAL TIME AND SPACE	Martaba Numonovna Melikova	47-53
7.	BRONZE BOWL AND TRAY FROM THE 11 TH -12 TH CENTURIES FROM A HOARD FOUND IN THE KASHKADARYA REGION	Tokhir Norkobilov	54-61
8.	THE FORMATION AND PROBLEMS OF THE SECONDARY MEDICAL PERSONNEL TRAINING SYSTEM IN THE ANDIJAN REGION IN THE 1950s	Karimova Feruzaxon Mutalipovna	62-69
9.	FORMATION OF MULTINATIONALITY AND TOLERANCE IN UZBEKISTAN IN THE 20 TH CENTURY	Meliqulov Bobur	70-76
10.	THE PROBLEM OF INHERITANCE IN THE FAMILY AND BIOETHICAL ISSUES OF ASSISTED REPRODUCTIVE TECHNOLOGIES	Umirzakova Nargiza Akmalovna	77-83
11.	BELIEF OF BUKHARA ARTISANS	Bo‘Ldieva Sobira Rajabovna	84-92
12.	PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE'S RELATIONSHIP TO CONSCIOUSNESS AND EXPERIENCE	Djabbarova Xabiba Kuvondikovna	93-97
13.	THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENTS IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE SYRDARYA REGION	Tursunova Mahliyo Sarvar Qizi	98-104
14.	THE HARMONY BETWEEN IBN KHALDUN'S SOCIO-	Nazirov Sherzodbek	105-113

	<i>PHILOSOPHICAL VIEWS AND THE REFORMS OF NEW UZBEKISTAN</i>	Rustamsher O'G'li	
15.	<i>THE MORAL ASPECT OF THE PROBLEM OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE</i>	Li Ekaterina Vladimirovna	114-120

«International Journal of Philosophical Studies And Social Sciences»

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

Mundarija - Volume 5 | No 5 (2025)

№	Mavzu	Muallif	Betlar
1.	SHUKRONALIK FAZILATINI SHAKLLANISHIDA NAQSHBANDIYA TAMOYILLARINING O'RNI	<i>Navro'zova Gulchehra Nigmatovna</i>	1-7
2.	RUS-O'ZBEK TILLARINING O'ZARO TA'SIRI VA AVLODLARNING IJTIMOYLAHVU	<i>Vera Muxamedjanova</i>	8-13
3.	MILLATLARARO MADANIYAT VA BAG'RIKENGLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI	<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i>	14-22
4.	XX ACP BOHLARIDA TYPKICTONDAHI MADAHIY-CIECIIY JAPAEHLAP: AЛИФБО ИCЛOXOTИ MИCОЛИДА	<i>Yulduz Boboqulovna Tursunova</i>	23-37
5.	POSTMODERNIZM FALSAFASI VA INFORMATSION DAVRDA HAQIQATNING ONTOLOGIK MAQOMI YO'QOLISHI	<i>Burnashev Rinat Faritovich</i>	38-46
6.	IJTIMOY VAQT VA MAKONO'ZARO HAPAKATINING FALSAFIY KONTSEPTUALIZASIIYASI	<i>Martaba Numonovna Melikova</i>	47-53
7.	QASHQADARYO VILOYATIDANXI-XII ASRLARGA OIOTOPIIQA XAZINADAN OLINGAN BRONZA KOSA VA LAGAN	<i>Toxir Norkobilov</i>	54-61
8.	1950-YILLARDA ANDIJON VILOYATIDA O'RTA TIBBIY KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING SHAKLLANISHI VA MUAMMOLARI	<i>Karimova Feruzaxon Mutalipovna</i>	62-69
9.	XX-ASRDA O'ZBEKISTONDA KO'PMILLATLILIKNING SHAKLLANISHI VA BAG'RIKENGLIK	<i>Meliqulov Bobur</i>	70-76
10.	OILADA BEPUSHTLIK MUAMMOSI VA YORDAMCHI REPRODUKTIV TEKNOLOGIYALARNING BIOETIKAVIY MUAMMOLARI	<i>Umirzakova Nargiza Akmalovna</i>	77-83
11.	BYXORO XUNAPMAHDLAPINING EBTKODI	<i>Bo'ldieva Sobira Rajabovna</i>	84-92
12.	SUN'IY INTELEKTNI ONG VA TAJRIBAGA MUNOSABATINING FALSAFIY TAHLILI	<i>Djabbarova Xabiba Kuvondikovna</i>	93-97
13.	SIRDARYO VILOYATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING ROLI	<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i>	98-104
14.	IBN XALDUN IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARI VA YANGI O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI UYQ'UNLIQI	<i>Nazirov Sherzodbek Rustamsher o'g'li</i>	105-113

15.	SUN'IY INTELEKT MUAMMOLARINING AXLOQIY JIHATLARI	<i>Li Ekaterina Vladimirovna</i>	114-120
------------	--	--------------------------------------	----------------

*Navroʻzova Gulchehra
Nigmatovna*



email:

premium.progress@mail.ru

**Buxoro texnika universiteti
“Ijtimoiy fanlar va jismoniy
madaniyat” kafedrası
professori,
falsafa fanlari doktori**

**THE ROLE OF THE PRINCIPLES OF NAQSHBANDIYA IN THE
FORMATION OF THE VIRTUE OF GRATITUDE**

**РОЛЬ ПРИНЦИПОВ НАҚШБАНДИЯ В ФОРМИРОВАНИИ
ДОБРОДЕТЕЛИ БЛАГОДАРНОСТИ**

**SHUKRONALIK FAZILATINI SHAKLLANISHIDA
NAQSHBANDIYA TAMOYILLARINING OʻRNI**

Abstract: The article philosophically analyzes the role of 3 of the 11 principles of Naqshbandi's Sufi teachings - "Khush dar dam," "Bozgasht," "Vukufi zamani" - in the formation of the virtue of gratitude by Bahauddin Naqshbandi.

Key words: Naqshbandiya, shukr, gratitude, "Khush dar dam," "Bozgasht," "Vukufi zamani."

Аннотация: В статье философски анализируется роль 3 из 11 принципов суфийского учения Накшбанди – «Хуш дар дам», «Бозгашт», «Вукуфи замани» – в формировании добродетели благодарности Бахауддином Накшбанди.

Ключевые слова: Накшбандия, шукр, благодарность, «Хуш дар дам», «Бозгашт», «Вукуфи замани».

Annotatsiya: Maqolada shukronalik fazilatini shakllanishida Bahouddin Naqshband tomonidan asoslangan Naqshbandiya tasavvufiy ta'limotidagi 11 tamoyilning 3 tasi - "Hush dar dam", "Bozgasht", "Vuqufi zamoni"ni o'rni falsafiy tahlil etilgan va asoslangan.

Kalit soʻzlar: Naqshbandiya, shukr, shukronalik, "Hush dar dam", "Bozgasht", "Vuqufi zamoni".

KIRISH

Shukronalik berilgan neʼmatlarni his etish, koʻrish, anglash, tafakkur etish va ularga minnatdorchilikni soʻzi, feʼli va amali bilan ifodalaydigan goʻzal insoniy fazilatdir. Shukr qiluvchi berilgan taqdiriga rozi boʻlib, xursandlik bilan uni qabul qiladi. Shukronalik sabr, qanoat fazilatlari bilan mustahkam bogʻlangandir. Shukronalik holatidagi inson atrofiga ijobiy quvvat tarqatadi va

Copyright © Author(s). This article is published under the Creative Commons Attribution (CC BY 4.0) licenses. Anyone may reproduce, distribute, translate and create derivative works of this article (for both commercial and non-commercial purposes), subject to full attribution to the original publication and authors. The full terms of this license may be seen

at <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode>

yashaydigan, ishlaydigan, o'qiydigan manzil-makonini ijobiy quvvatlarga to'ldiradi. Shukronalik fazilati jamiyatda tinchlik, xotirjamlik, ahillik, do'stlik va birodarlikni hosil qiladi. Shukronalik xayru baraka va ne'matlarning bardavomligining asosidir.

Shukronalik fazilatini vujudga kelishi va shakllanishida oila, mahalla, ta'lim-tarbiya o'choqlarining roli kattadir. Shular bilan birga bu fazilatni shakllanishida tasavvufning Naqshbandiya ta'limotining o'ziga xos o'rni bor. Bu ta'limot XIV-asirda Buxoroda vujudga kelgan bo'lib, uning asoschisi Bahouddin Naqshband nomi bilan mashhur Muhammad ibn Muhammad Buxoriy (1318-1389). Naqshbandiya ta'limotining 11 tamoyili mavjuddir. Bu tamoyillar insonni g'afolat uyqusidan uyg'otib, mushohada maydoniga kiritadilar hamda komil inson bo'lib shakllanishiga yordam beradilar. Tadqiqotlarimiz natijasida shukronilik fazilatini shakllanishida Naqshbandiya ta'limotidagi "Hush dar dam", "Bozgasht" va "Vuqufi zamoniyy" rashhalarini o'rni kattaligini aniqladik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Shukronalik fazilatiga oid Buxoroda o'tkazilgan Respublika miqiyosidagi anjumanlar to'plami asosiy manbalardan biri bo'lib hisoblanadi [26,27]. Bu to'plamlarda tasavvuf va Naqshbandiya ta'limotlarida shukronalikga oid maqolalar mavjud. Ammo Naqshbandiyadagi tamoyillarning bu fazilatni shakllanishiga maxsus e'tibor berilmagan. XIV-asrdagi Buxoroda vujudga kelgan va Bahouddin Naqshband tomonidan asoslangan Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti mustaqillik davrida tadqiqot ob'ektlariga aylandi. Bu ta'limotga oid manbalar tarjima qilindi [1-4,22-25]. Naqshbandiyaga oid monografiya [5,6,9,18,20,21] va maqolalar [11-17] nashr etildi. Naqshbandiya ta'limotining asoschisi Bahouddin Naqshbandning hayot faoliyati va ta'limotiga oid izlanishlar olib borildi va natijalari e'lon qilindi [8-10,13-15].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotni olib borishda tizimlilik, analiz va sintez, germenevtika, tarixiylik va mantiqiylik, qiyoslash uslublaridan foydalanildi. Naqshbandiya ta'limotidagi o'n bir rashha-tamoyillar tizimli tahlil etilib, ulardan "Hush dar dam", "Bozgasht", "Vuqufi zamoniyy" rashhalarininng shukronalik fazilatini shakllanishidagi ahamiyati qiyosiy tahlil asosida aniqlandi. Naqshbandiya ta'limotidagi uch tamoyilning tarixiylik va mantiqiylik nuqtayi nazar bilan tahlil etish asosida shukronalik fazilatini shakllanishida ularning dialektik aloqadorligi aniqlandi va miqdoriy o'zgarishlarining sifat o'zgarishiga olib kelishi asoslandi. Manbalar tahlilida germenevtik usul asosida tamoyillarning mazmun-mohiyatini tushunib tushuntirishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar

Tasavvufshunos olimlar Naqshbandiya tariqatini junaydiya-hushyorlik yo'lining eng izchil davomchilari deb tan oladilar. Darhaqiqat, bu tariqat komil inson darajasiga yuksalish uchun ta'limotdagi o'n bitta talablari orasida eng zarur va ahamiyatlisi «Hush dar dam» – «har bir damda hushyorlik» degan talabni qo'yganlar. Shuning uchun Naqshbandiya tariqati jahonda juda keng yoyilgan va u haqida «aqrab-ut-tariq» – eng yaqin yo'l, degan ta'rif mavjud. Ya'ni bu tariqat olam mohiyatini anglash va komil inson darajasiga yuksalishning eng yaqin yo'lini ko'rsatadi, deganlar [18].

Copyright © Author(s). This article is published under the Creative Commons Attribution (CC BY 4.0) licenses. Anyone may reproduce, distribute, translate and create derivative works of this article (for both commercial and non-commercial purposes), subject to full attribution to the original publication and authors. The full terms of this license may be seen

at<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode>

«Hush dar dam» – «hush» va «dam» soʻzlaridan olingan boʻlib, har bir inson umrining har bir lahzasini, onida hushyor, zehnli, ogoh boʻlishini anglatadi. «Dam» iborasi bu yerda lahza, fursat, on, nafas maʼnosida kelmoqda. Tadqiqotlarda «hush»ni baʼzida «xush» deb yozib, har onni xursand, xushvaqt oʻtkazish maʼnosini anglatadi degan talqinlar uchraydi. Lekin Naqshbandiyada u hushyor maʼnosida kelgan. Hushyorlik gʻaflat tushunchasiga qarama-qarshi boʻlib, inson oʻz umrining biror nafasi, berilgan biror fursatini ham gʻaflat bilan, uyqu holatida oʻtkazishga haqqi yoʻqligi aytiladi.

Bu tamoyilning shakllanishida Saʼdiy Sheroziy qarashlarining taʼsiri bor [24]. Bu haqda Ibrohim Moʻminov ham oʻz fikrlarini bildirgan edilar [19]. Bizning fikrimizcha, Saʼdiyning mashhur «Guliston» asaridagi quyidagi gʻoyalar bunga asos boʻlgan: «Har nafase, ki furoʻ meravad mumiddi hayot ast va chun barmeoyad farahi zoti hast, pas ba har nafasi du neʼmate mavjud ast va ba har neʼmat shukre vojib ast» [24:3]. Mazmuni: «Har bir yutiladigan nafas odam umrini uzaytiruvchidir, u chiqqanida zotga farah baxsh etadi. Shuning uchun har bir nafasda ikki neʼmat mavjud va har bir neʼmat uchun shukur vojibdir».

«Hush dar dam» tamoyili Yetti Piri tabarruk ustozisi Yusuf Hamadoniydan qolgan. Uni Abdulxoliq Gʻijduvoniyo Xojagon tariqatiga tamoyil qilib kiritgan.

Shukronalik fazilatini shakllanishida yordam beruvchi ikkinchi tamoyil «Bozgasht»dir. Bu tamoyil Abdulxoliq Gʻijduvoniyo tomonidan yaratilgan ikkinchi rashhadir [7:32-43]. «Bozgasht» – fors-tojikcha “boz” – yana va “gasht” – qaytdi soʻzlaridan olingan boʻlib, zikr jarayonini xolis va pok boʻlishini taʼminlaydi. Til yoki dil zikri bilan mashgʻul boʻlgan kishi, toʻxtashi va avvalgi holatiga qaytishi, shu orada qilingan zikrini tahlil etishi hamda quyidagi iborani: “Xudoyo maqsudi man tui va rizogii tu matlubi man meboshad” - “Ilohi anta maqsudi va rizoka matlubi”, yaʼni “Parvardigoro, Sen mening maqsadimsan va sening rizoliging mening matlubimdir”ni takrorlashi lozim. Bu kalimani takrorlashning ahamiyati shundaki, zikr jarayonini gʻaflat bilan oʻtishdan saqlaydi. Inson qilgan amallarini tahlil etib, gʻaflat bilan oʻtgan boʻlsa istigʻfor aytadi. Ammo Olloh rozi boʻladigan darajada oʻtgan boʻlsa shukur qiladi. Naqshbandiya taʼlimotida asosiy maqsad Olloh rizolidir. Rizo tushunchasi shukur tushunchasini shakllanishiga taʼsir etuvchi asosiy omildir. Rozilik shukronalikni tugʻdiradi. Shukronalik rozilik holatiga olib keladi.

“Rashahot” asarida yoziladiki, «Bozgasht» uldurkim, har martabaekim, zokir tili va koʻngli bilan kalimai toyibani aytsa uning izidan shul tili bilan aytsun: “Xudovando, mening maqsadim Sen va Sening rizoliging mening matlubimdir”, shuning uchun bu kalimai «Bozgasht» nafiy etguvchidir, yaʼni xotiradan keladigan yaxshi va yomonni yoʻqotuvchidir, toki zikr xolis boʻlsin va uning siri mosivodan forigʻ aylansin” [25:37-38]. Asarda taʼkidlanadiki, zikr aytuvchi kalimai «Bozgasht»ni aytayotganda hali oʻzida sidq mavjudligini topa olmasa ham, bu kalimani tark etmasin shunda asta-sekinlik bilan sidqning asari hosil boʻladi.

Tohir Eshon “Tazkirai naqshbandiya” asarida “Bozgasht” kalimasini izohlab shunday yozganlarki, «Bozgasht» kalimasi solihning xotiriga xayru shar, yaʼni yaxshilik va yomonlik kirsam hammasini yoʻq etguvchidir, to uning zikri xolis aylanib, mosivollohdin forigʻ boʻlgay. Demak, “Bozgasht” inson tomonidan xotirani nazorat qilish jarayonidir va bu amaliyot natijasida xotirada faqat Alloh va uning rizoligi keladi, bu esa qalbdan niyatning poklanishiga yordam beradi. Xotirani poklanishi va qalbdan niyatning poklanishi shukronalik holatini mustahkamlaydi.

Shukronalik fazilatini shakllanishiga yordam beruvchi Naqshbandiya ta'limotidagi tamoyillaridan yana biri "Vuqufi zamoniylar". Bahouddin Naqshbandning tasavvuf ta'limotidagi eng asosiy xizmatlaridan biri vaqt haqidagi ilmni inson kamolotining asosida qo'ydi. Uning tarixiy xizmatlaridan biri "Vuqufi zamoniylar" - "Zamon, vaqtdan ogohlik" rashha - hayotbaxsh o'g'itlarini Naqshbandiya ta'limotining asosiy tamoyili sifatida kiritdi. Vuqufi zamoni – inson o'zi yashayotgan davr, zamon qanday kechayotganligidan ogoh bo'lishi, umr bir bor berilishi va inson uni xayrli, ezgu ishlarga sarf etishi lozim, g'afolatda qolmasligi, loqayd bo'lmasligi, ogoh, hushyor, daxldor bo'lishi kerak degan mazmun – mohiyatni anglatadi.

So'fiylarda vaqt ikki xil bo'ladi: 1. Faqd – vaqtni yo'qotmoq holati. 2. Vajd – vaqtni ichida bo'lish, uni egallash holi. Tasavvuf ahli deydi, vaqt – reallik, u bizni ixtiyorimizdan tashqarida, uni tanlash erkinligi yo'q. Istasak, yoki istamasak ham vaqt bor. Vaqtni bozordan sotib ololmaymiz, uni biror narsa bilan almashtirib bo'lmaydi, hatto hayotimizni berib ham vaqtni qaytara olmaymiz. Inson vaqtni o'ziga yaqinlashtirib ham, uzoqlashtirib ham bilmaydi.

Bahouddin Naqshband asoslagan Naqshbandiya ta'limotida inson faol hayot tarzini o'tkazish kerakligi qayd etilgan. "Dast ba koru, dil ba yor"lik, xilvatning anjumanda bo'lishi, safarning Vatanda qilinishi bunga imkon berishi bilan birga Naqshbandiyada robita degan amaliyot kiritilgan. Naqshbandiya yo'lidagi inson robita amaliyoti orqali o'z-o'zini tahlil etib turadi."Robitai huzur" "Robitai mavt" "Robitai murshid", bir tomondan erkin mehnat faoliyatini olib borib e'tiqod qilishga imkon bersa, ikkinchidan insonni har bir o'tgan vaqt, zamonini tahlil etishga o'rgatadi. Naqshbandiya vaqtdan to'g'ri foydalanish natijasida inson "ibn ul vaqt" – vaqt o'g'li, "abul vaqt" – vaqt otasi darajasida ulg'ayishi va vaqtni o'z izmida boshqara olishi mumkin degan.

Bahouddin Naqshbandning "vuqufi zamoni" tamoyili nafsni jilovlash uchun juda katta ahamiyatga ega. "Bu qoidaga asosan, banda hamisha o'z ahvolidan voqif bo'lmog'i lozim, toki har bir sifat o'zgarishda (zamonida) bandaning holi qanday kechadi, mavjibi shukr bo'ladimi yoki mavjibi uzrmi. Bu degan gap, solik (Haq yo'lidan borayotgan kishi) o'z umridagi har bir daqiqani, yaxshilik (xayr) bilan o'tdimi yoki yomonlik (sharr) bilan o'tdimi, buni doimo hisob-kitob qilib yashamog'i darkor". Demak, "vuqufi zamoni"ga asosan Haq yo'lidan borayotgan shaxs o'z ahvolini nazorat qilishi, to'g'ri ish qilgan bo'lsa shukr qilishi, gunoh qilgan bo'lsa istig'for aytib, Ollohdan mag'firat so'rashi lozim. Mavlono Ya'qubi Charxiy ma'lumot beradikim, hazrat Bahouddin Naqshband menga, og'ir holatimga istig'for etishga, tavba qilishga va yaxshi, xush ahvolimda shukr etishga amr etardilar va shu ikki holatga rioya etish vuqufi zamoni ekanligini aytar edilar.

Bahouddin Naqshband muhosaba bilan vuqufi zamoni tushunchasini bir ma'noda ishlatadi. Muhosaba darajasiga yetish uchun orif vaqtning qadrini biladigan bo'lishi kerak. Naqshbandiya tariqati ahli orasida butun tasavvuf ahliga xos bo'lganidek, vaqt juda qadrlangan. Vaqtning naqadar qimmatli va aziz ekanligini bilish lozimligini soliklarga uqtirganlar. Uni bekorga zoe etib sarflashdan ularni saqlaganlar. Zero, vaqt-naqddir. Uni boshqa qaytarib bo'lmaydi. Shuning uchun soliklar yo'lning qaysi martabasida bo'lsalar ham vaqtni muhofaza va muhosaba etib, uni zoe etmaslikka harakat qilganlar.

M u h o s a b a - oriflar ruhiy kamolining yo'lidir. Hazrat Bahouddin Naqshband bu yo'l - oriflarning Haqqa yetish vositasini shunday izohlagan: "Muhosaba - o'tgan har bir soatimizni hisoblash va tekshirishdir. O'tgan har bir soatimiz, nafasimiz va zamonimiz h u z u r bilan o'tdimi

Copyright © Author(s). This article is published under the Creative Commons Attribution (CC BY 4.0) licenses. Anyone may reproduce, distribute, translate and create derivative works of this article (for both commercial and non-commercial purposes), subject to full attribution to the original publication and authors. The full terms of this license may be seen

[athttps://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode)

yoki nuqson bilanmi, agar hammasi nuqson bilan o'tgan bo'lsa, qaytamiz va amalni avval boshdan boshlaymiz".

Muhosaba vaqtida orif har bir nafasini nazorat qilishi va agar g'aflat bilan o'tgan bo'lsa «Bozgasht» qilish kerak, ya'ni ishni qaytadan boshlashi lozim deydi.

Bahouddin Naqshband muhosaba bilan vuqufi zamoni tushunchasini bir ma'noda ishlatadi. Bahouddin Naqshbandni tasavvuf tarixidagi xizmatlaridan biri ham uning vaqt haqidagi g'oyasidir. Chunki u Naqshbandiya tariqatini asoslab, uning asosiy tamoyili sifatida Yusuf Hamadoniy va Abdulkoliq G'ijduvoniyning sakkizta rashhasiga uchta yangi g'oya qo'shdi va ularning birtasi vuqufi zamoni – vaqtdan ogoh bo'lish, uni anglash, bilishdir. "Rashahot" asarida Bahouddin Naqshband tariqatga kiritgan vuqufi zamoni shunday ta'riflangan: "Vuqufi zamoni" Xoja Bahouddin quddisa sirruhu oytib tururlar, vuqufi zamonaikim, yo'l yurguvchilarning korguzorandasi turur, ul tururkim, banda o'z ahvoliga voqif bo'lsunkim, har zamonda oning sifati va holi ne turur: mujubi shukr tururmu, yo mujibi uzr?

Va Hazrati Mavlono Ya'qubi Charxiy quddisa sirruhu oytib tururlarkim, Hazrati Xojayi Buzrug, ya'ni Xoja Bahouddin quddisa sirruhu qabz holatda mani istig'forg'a amr etdilar va bast holatda shukr etmakka buyurdilar va oydilar: "Bu ikki holning rioyasi vuqufi zamoni turur".

Va yana Hazrati Xoja Buzrug oydilarkim, binoyi qori solikni vuqufi zamoniya soatg'a qo'yib tururlar, to nafasni topguchi bo'lsunkim, huzur bila o'tarmu yo g'aflat bila? Agar nafasga bino etsalar bu ikki sifatni topguchi bo'lmas. Vuqufi zamoni sufiya qaddasallohu arvoahum nazdida muhosabadi iborat turur. Va Hazrati Xoja Buzrug oytib tururlar: "Muhosaba uldurkim, har soatdin oncha bizlarg'a o'tub turur g'aflat bilamu o'tubdur va huzur bilamu o'tubdur ko'rarmiz, agar barcha nuqson turur, «Bozgasht» etarmiz va amalni yongi boshdin turarmiz" [25:39].

Bu tariqat ahli o'rtasida Hazrat Bahouddin Naqshbandning shunday fikri hukmron bo'lgan: "Musibatlar juda ko'pdir. Faqat eng buyuk musibat esa v a q t ning foydasiz, bekorga ketishidir". Bahouddin Naqshband vaqt mohiyatini ochib aytadiki, "Har kim o'z vaqtida vazifasini ado etish bilan mashg'ul bo'lsa, uni "sohibul vaqt" (vaqt egasi) deytilar. Bu darajada yetishganlar bu vaqtni abadiyatga bog'laydilar. Bunday vaqt sohibi vaqtning tasarrufidan xalos bo'lgan, balki vaqt va nafaslarni o'z tasarrufiga olgan bo'ladi. Uni "abul vaqt" – "vaqt otasi" deytilar.

Ma'lum bo'ladi, tasavvuf ahli vaqt siru asrorini bilishga harakat qilib, uni o'z iznlariga solganlar. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning shunday hadisi shariflari bor: "Bir onlik tafakkur, bir yillik ibodatga teng", "Bir onlik tafakkur, yetmish yillik ibodatga teng", "Bir onlik tafakkur, ming yillik ibodatga teng". Bu hadislarini sharhlab qodiriya tasavvufiy ta'limot asoschisi bo'lgan G'avsul A'zam, Piri Dastgir nomlari bilan mashhur Abdulqodir Giloniy (XII asr) nimani va qanday tafakkur qilish ibodat quvvatini oshirishini aytadi.

Vaqt tasavvufiy talqinda, bir tomondan, ilm sifatida tasniflangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, muhosaba – hisob kitob qilib turishi zarur hodisa, uchinchi tomondan, o'tmish va kelajak orasida mavjud bo'lgan, real imkoniyat, on, nafas, to'rtinchi tomondan, ogoh bo'lish zarur damdir. Uni bilish, anglash va undan foydalana olish inson holatiga ta'sir etib, kamolotga yetishiga yordam beradi.

Tasavvuf ahli vaqtga insonni unga bo'lgan munosabatiga qarab ta'rif bergan. Vaqt ichida bo'lish, vaqt imkoniyatini anglash, shu vaqt ya'ni o'tmish va kelajak orasidagi muddatda insoniy holatda yashash, vaqtni samaradorligini oshirish – bir onni ming yil bilan tenglashtirish. Demak,

Copyright © Author(s). This article is published under the Creative Commons Attribution (CC BY 4.0) licenses. Anyone may reproduce, distribute, translate and create derivative works of this article (for both commercial and non-commercial purposes), subject to full attribution to the original publication and authors. The full terms of this license may be seen

at<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode>

tasavvuf ahli uchun vaqt abstrakt bir tushuncha emas, inson bilan chambarchas bog'langan va insonni ikki dunyo saodatiga yetaklay oladigan tushunchadir. Vaqt insoniyatni abadiyatga daxldor qilgani kabi, inson ham vaqtning o'lmas, abadiy qila oladi.

Naqshbandiya ta'limotida amal qilish lozim bo'lgan asosiy talab uchmadir. Bu talablar-zikr, fikr, shukr. Ma'lum bo'ladiki Naqshbandiya ta'limoti insonni barcha ne'matlarni yaratganini zikr qilishi, ularning mazmun mohiyatini fikr qilishi va bu ne'matlar uchun shukr qilishi kerak ekan. Naqshbandiylikdagi bu talablar ichida shukrni bo'lishi komil inson darajasida yuksalish uchun shukronalik fazilatining muhim ekanligini ko'rsatmoqda.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib quyidagilarni ta'kidlash lozim:

Naqshbandiya ta'limotidagi "Hush dar dam" tamoyili insonni har bir nafas va nafaslar orasidagi vaqtning qadrini bilib shukronalik bilan o'tkazishni taqozo etadi.

Naqshbandiya ta'limotidagi "Bozgasht" tamoyili insonni har bir amalini Olloh rizoligi uchun bo'lishini talab etadi. Naqshbandiyadagi rizo tushunchasi insonni shukronalik holatiga keltiradi. Rizo va shukronalik o'zaro bog'liqdir.

Naqshbandiyaning "Vuqufi zamoniyl" tamoyili insondan o'tgan har bir vaqtdan ogoh bo'lib shukr etishni takozo etadi.

Naqshbandiya ta'limotining asosiy talablaridan biri shukr bo'lib, komil inson sifatlaridan biri shukronalik ekanligidan dalolat beradi.

Umumiy xulosa qilib aytganimizda jamiyatimizda tinchlik va ahillikni ta'minlashning asosiy fazilatlaridan biri shukronalikdir. Yoshlarda bu fazilatni shakllantirish uchun Naqshbandiya ta'limotidan foydalanish yaxshi samara beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband / Forsiydan tarjimon, so'z boshi, izoh va lug'at muallifi Mahmud Hasaniy. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 335 b.
2. Bahouddin Naqshband. Ruboiylar. Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2023 – 84 b.
3. Bahouddin Naqshband. (Manbalar tahlili). To'plab nashrga tayyorlovchi, maqola, izoh va sharhlar muallifi. G. N. Navro'zova. T.: "Sano standart" nashriyoti, 2019. 256 b.
4. Bahouddin Naqshband. Hikmatli so'zlar. Bahouddin Nakshband. Words of wisdom. Hikmatli so'zlarni to'plovchi va maqolalar muallifi. G. N. Navro'zova, Hikmatli so'zlarni ingliz tiliga tarjima etuvchi Z. Rasulov. "Sadriddin Salim Buxoriy". "Durdona" nashriyoti. 2020. 52 b.
5. Navro'zova G.N. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: Fan, 2005. – 233 b.
6. Navro'zova G.N. Naqshbandiya – kamolot yo'li. – Toshkent: Fan, 2007. – 189 b.

Copyright © Author(s). This article is published under the Creative Commons Attribution (CC BY 4.0) licenses. Anyone may reproduce, distribute, translate and create derivative works of this article (for both commercial and non-commercial purposes), subject to full attribution to the original publication and authors. The full terms of this license may be seen

[athttps://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode)

**INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND
SOCIAL SCIENCES**

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>

Vol 5, Issue 5 (2025)

7. Navro'zova G.N. Abdulkholiq G'ijduvoni. Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2020. 108b
8. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband. (Risola). T.: "ABU MATBUOT-KONSALT" nashriyoti, 2011. 24 b.
9. Navro'zova G.N. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma'naviy merosi. – T.: Fan, 2021. – 244 b.
10. Navruzova G.N. Bahauddin Naqshband – the seventh pir of Bukharai Sharif (Noble Bukhara). Islom tafakkuri (Maxsus son), 2020. 5-8-b.
11. Navro'zova G.N. Shukronalik – inson kamolotining asosi. //Imom Buxoriy saboqlari. 2023. №3. 121-123-betlar.
12. Navro'zova G.N. Naqshbandiya ta'limotida rizo tushunchasi. //Islom tafakkuri. 2022. 2-son. 39-46-betlar.
13. Navro'zova G.N. Buxoroi sharifning yetti piri halol tushunchasi xususida. // Imom Buxoriy saboqlari. 2022. 4-son 51-52-b
14. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband ruboiylarida insonni ruhiy muvozanati masalasi. Interpretation and researches. Volume 1 issue 22. 30.12.2023. p.171-176.
15. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband ta'limotida suhbat tushunchasi. Interpretation and researches. Volume 2 issue 1(23). 30.01.2024. p.19-22.
16. Navro'zova G.N. Naqshbandiya: Naqshdan benaqsh sari yo'li. Interpretation and researches. Volume 2 issue 8(30). 10.05.2024. p.219-225.
17. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband ruboiylaridagi inson tushunchasining falsafiy tahlili. // Islom tafakkuri. 2024. 2-maxsus son 49-53-b.
18. Navro'zova G.N. Naqshbandiya – hushyorlik yo'li. T.: Fan, 2024. 184 b.
19. Navro'zova G.N. Akademik Ibrohim Mo'minov ilmiy jasoratining yangi qirrasini // ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. 2023 № 10. 122-128-b
20. Navro'zova G.N. Naqshband ruboiylari falsafasi. T.: "Fan", 2025.184b
21. Raxmatova X.X. Xoja Ahror Valiy ma'naviy merosida murosa falsafasiga doir g'oyalar tahlili [Matn] .-Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2023. 2016 b
22. Risolaho'i piron va payravoni tariqati Naqshbandiya. Dushanbe: 2017. 456 b.
23. Salohiddin ibn Muborak al-Buxoriy.(1410) Anis at-tolibin va uddat as-solikin. Buxoro muzeyi 27772/11 qo'lyozma 168 v.
24. Sa'diy Sheroziy. Guliston. Qo'lyozma. 43 a.
25. Faxruddin Ali Safiy. Rashhotu aynil-hayot («Obihayot tomchilari»): tarixiy-ma'rifiy asar / Tabdil qiluvchilar, nashrga tayyorlovchilar: M.Hasaniy, B.Umrzoq. Mas'ul muharrir: B.Umrzoq (O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti). – T.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. 536 b.
26. Shukronalik - tinchlik va ahillik asosi [Matn]: / Jamoa. - Buxoro: "Buxoro" nashriyoti, 2023. 208 b.
27. Shukronalik - tinchlik va ahillik asosi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Buxoro 2024.

Copyright © Author(s). This article is published under the Creative Commons Attribution (CC BY 4.0) licenses. Anyone may reproduce, distribute, translate and create derivative works of this article (for both commercial and non-commercial purposes), subject to full attribution to the original publication and authors. The full terms of this license may be seen at <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode>